

XAVFSIZ TURIZMNI TA'MINLASHNING KRIMINOLOGIK MUAMMOLARI

Gulyamov Qahramon Davronovich

O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi
universiteti mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya. Mazkur maqola turizm sohasida xavfsizlikni ta'minlashning kriminologik muammolariga bag'ishlangan bo'lib, unda turizmning barqaror rivojlanishi uchun xavfsizlikni ta'minlash zarurligi, turizm infratuzilmasini rivojlantirishda xavfsizlik asosiy omillardan biri ekanligi ta'kidlanadi. Turizm sohasidagi jinoyatchilikning turlari, kelib chiqish sabablari va ularga qarshi kurashish borasidagi profilaktika choralari tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: xavfsiz turizm, jinoyatchilik, kriminologiya, jamoat xavfsizligi, profilaktika, qonunchilik.

Abstract. This article is dedicated to the criminological issues of ensuring safety in the tourism industry. It highlights the need for security to enable sustainable tourism development and emphasizes safety as a critical factor in the development of tourism infrastructure. The article analyzes various forms of crime in tourism, their causes, and preventive measures.

Keywords: safe tourism, crime, criminology, public safety, prevention, legislation.

Bugungi kunda turizm dunyodagi eng tez rivojlanayotgan sohalardan biriga aylanib ulgurdi, ammo turizmning barqaror rivojlanishi xavfsizlikni ta'minlashsiz amalga oshishi mushkul. Shu nuqtayi nazardan, turizm bilan bog'liq xavfsizlik muammolari nafaqat ijtimoiy, balki kriminologik tadqiqotlarning ham muhim yo'nalishlaridan biriga aylandi. Turizm sohasidagi jinoyatchilik tahdidlari mamlakatning jozibadorligiga salbiy ta'sir ko'rsatib, turizm infratuzilmasini rivojlantirishni qiyinlashtiradi.

Jahonda turizm sohasidagi normalarning qiyosiy tahlili, turizmning huquqiy tartibga solinishi, xalqaro turizm huquqini rivojlantirish, turistlarga sifatli xizmat ko'rsatishni takomillashtirish sohalarda tadqiqotlar amalga oshirilmoqda. Shu bilan birga, turizm obyektlarida jamoat xavfsizligini ta'minlash, huquqni muhofaza qiluvchi organlarning xavfsiz turizmni ta'minlash sohasidagi faoliyati yo'nalishlari va ularning o'ziga xos xususiyatlari, xavfsiz turizmni ta'minlashga mas'ul davlat organlarining hamkorligini kuchaytirish, sohadagi normativ-huquqiy hujjatlarni takomillashtirish hamda tashkiliy chora-tadbirlarni rivojlantirish bilan bog'liq ilmiy tadqiqotlar olib borish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

O'zbekistonda ham xavfsizlik turizmning rivojlanishi uchun muhim omillardan biri ekanligi tan olinib, bu sohani rivojlantirishda xavfsizlikni

ta'minlash uchun bir qator chora-tadbirlar amalga oshirilib kelinmoqda. Masalan, O'zbekistonning sayyohlik potensialini oshirish maqsadida hukumat tomonidan qonunchilik bazasini mustahkamlash, xavfsizlik infratuzilmasini rivojlantirish, mahalliy aholi va sayyohlar o'rtasida xavfsizlik bo'yicha axborot targ'ibot ishlarini olib borish kabi ishlar shular jumlasidandir. Jahon iqtisodiy forumi (JEF) hisobotida xabar berilishicha, 2024-yilgi umumiy reytingda O'zbekiston 78-o'rinni egalagan. 2019-yildan buyon mamlakatimiz 16 pog'onaga ko'tarilgan. Reytingga jami 119 mamlakat kiritilgan. JEF mutaxassislari 2019-2024 yillar uchun atrof-muhit, siyosat, infratuzilma va xizmatlar, resurslar va barqaror rivojlanish bo'yicha ma'lumotlarni tahlil qilishgan[13].

O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 18-iyuldagi "Turizm to'g'risida"gi qonunining asosiy prinsiplaridan biri ham "turistlarning, ekskursantlarning va turizm sohasi subyektlarining huquqlari, erkinliklari, qonuniy manfaatlarini hamda xavfsizligini himoya qilish ustuvorligi" [5] sifatida mustahkamlanganligining o'zi ham tadqiq etilayotgan mavzuning dolzarbligidan dalolatdir.

Kriminologiya jinoyatchilikning kelib chiqish sabablari va uning oldini olish yo'llarini o'rganuvchi fan sifatida, turizm sohasidagi jinoyatlarni ham aniqlaydi va ularga qarshi samarali

choralar ishlab chiqishni maqsad qiladi. Jinoyatchilikni kriminologik tahlil qilish orqali jamiyatdagi turli xavfli omillar va jinoyatchilikning xususiyatlari o'rganiladi, shuningdek, jinoyatchilikning oldini olish va bartaraf qilish usullari ishlab chiqiladi. Turizm sohasidagi xavfsizlik muammolari ham mana shu jarayonlardan istisno emas.

Turizm va xavfsizlik o'zaro bog'liq va bir-birini to'ldiruvchi hodisalar sifatida qayd etiladi. Jahon turizm tashkiloti tomonidan 2001-yil 27-sentyabrda qabul qilingan "Tinchlik va turizm" Seul deklaratsiyasida turistlarning xavfsizligi va himoyasi Jahon turizm tashkiloti a'zosi bo'lgan har bir mamlakatda ustuvor vazifa bo'lishi kerakligi qayd etilgan [10].

O'zbek tilining izohli lug'atida "xavfsizlik – xavf-xatarning yo'qligi; xavf bo'lmagan holat"[7] sifatida ta'riflangan bo'lsa, rus tili izohli lug'atida "xavfsiz" atamasi "xavf tug'dirmaydigan, tahdiddan xoli" degan ma'noni bildiradi [2].

Rossiya Federatsiyasining "Turistik faoliyatning asoslari to'g'risida"gi qonuniga ko'ra, turizm xavfsizligi – bu turistlar va ularning mol-mulki xavfsizligini ta'minlash, sayohatlar vaqtida atrof-muhitga, jamiyatning moddiy va ma'naviy boyliklariga hamda davlat xavfsizligiga zarar yetkazmaslikni o'z ichiga oladi [11]. Bu norma nafaqat turistlarning shaxsiy xavfsizligini, balki ularning atrofidagi muhitni va jamiyatning umumiy manfaatlarini ham himoya qilishni nazarda tutadi. Qirg'iziston Respublikasi qonunida "Xavfsiz turizm deganda, sayohat vaqtida turistlarning shaxsiy xavfsizligi va ularning mol-mulki xavfsizligi tushuniladi"[3]. Bu yerda turistlarning shaxsiy xavfsizligi va mol-mulki himoyasiga urg'u berilgan bo'lib, atrof-muhit va davlat xavfsizligiga uncha e'tibor qaratilmagan. Belarus Respublikasining qonunida ham "turizm sohasida xavfsizlik" tushunchasi turistlar va ekskursiyachilarning hayoti, sog'lig'i va mulki saqlanishini, turistik sayohatlar davomida atrof-muhitga ziyon yetkazmaslikni, ishtirokchilar va turizm faoliyati subyektlarini axborot bilan ta'minlashni hamda ishtirokchilarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilishni anglatadi [4]. Belarus Respublikasida xavfsiz turizmni ta'minlash ko'p qirrali yondashuvni ko'zda tutgan.

"Turizm xavfsizligi" tushunchasi turli davlatlarda turlicha talqin qilinganini ko'rish mumkin. Rossiya va Belarus qonunlarida

"xavfsizlik tushunchasi" keng qamrovli bo'lib, turistlarning shaxsiy xavfsizligidan tashqari, atrof-muhit va davlat xavfsizligiga ham alohida e'tibor qaratilgan. Qirg'iziston qonunida esa asosiy urg'u turistlarning shaxsiy xavfsizligi va ularning mol-mulki himoyasiga qaratilgan.

M.B.Sharuyeva ta'kidlaganidek, turizm xavfsizligi turizm sohasidagi huquqiy munosabatlarda ishtirok etayotganlar, ya'ni turoperatorlar (turagentlar), Rossiya Federatsiyasi fuqarolari, xorijiy fuqarolar va fuqaroligi bo'lmagan shaxslarning dam olish huquqini amalga oshirishda xavfsizligini ta'minlashni anglatadi [15]. Bu yondashuv turizm jarayonining turli ishtirokchilari huquq va manfaatlarini himoya qilish, huquqiy tartibga solish va turistlar huquqlarini himoya qilishning ahamiyatiga urg'u beradi.

Ye.L.Pisarevskiyning fikricha, turizm xavfsizligi turizm sohasini ichki va tashqi tahdidlardan himoya qilish bo'yicha dinamik holat bo'lib, uning mavjudligi va barqaror rivojlanishini ta'minlaydi[8]. Bu ta'rifda xavfsizlikning kengroq kontekstiga, jumladan turizm sohasiga ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy jihatlariga urg'u beriladi.

S.R. Tursunova o'z tadqiqotida xavfsiz turizmni turistlarning hayoti, sog'lig'i, mol-mulki xavfsizligi, shuningdek, sayohat paytida jamiyatning ma'naviy, moddiy va milliy qadriyatlariga, atrof-muhitga, jamiyat va davlat xavfsizligiga yetkazilishi mumkin bo'lgan zararlarning oldini olish va bartaraf etish holati sifatida tushunadi [12]. Bunda xavfsizlikka turizm faoliyatining turli jihatlarini qamrab oluvchi kompleks yondashuvning zarurati ta'kidlanadi.

Yuqoridagi har uchala ta'rifda turizm xavfsizligining turli jihatlarini ta'kidlanadi va ular bir-birini to'ldiradi. M.B.Sharuyeva huquqiy jihatlariga, Ye.L. Pisarevskiy tahdidlardan himoya va barqaror rivojlanishga, S.R.Tursunova esa turistlar va jamiyat xavfsizligini kompleks himoya qilishga urg'u beradi. Bu yondashuvlar birgalikda turizm xavfsizligiga nisbatan to'liq tushuncha hosil qiladi va bu sohada strategiyalar va siyosatlar ishlab chiqishda e'tiborga olish mumkin.

Sayyohlarning xavfsizlik masalasiga bo'lgan e'tiborning tarixiy jihatlarini huquqshunos S.R. Tursunova "Xavfsiz turizmni ta'minlashning ma'muriy-huquqiy choralari takomillashtirish" nomli dissertatsiyasida batafsil tadqiq etgan bo'lib, unga ko'ra qadimgi Rimda sayyohlarga

qo'riqchilar, gidlar va ekskursiya tushuntiruvchilari tomonidan turli xil pullik xizmatlar taklif qilingan. Ular, avvalo, alohida shaxslarning hamda sayyohlar guruhlarining xavfsizligini ta'minlashgan[2], qolaversa, sayyohlarga yordam berishgan, ularning hayoti va sog'lig'ini noqonuniy hujumlardan himoya qilishgan. Shu tariqa, turistlarning xavfsizligini ta'minlashga oid birinchi tartibotlar Rim huquqi tarixiga borib taqaladi [12].

Sayohatning boshlang'ich davrlarida turistlarning shaxsiy xavfsizligini ta'minlash ahamiyatlidir. Chunki, bu davrda turistlar yangi ijtimoiy-psixologik muhit, geografik sharoit va vaqtinchalik bo'lib turgan mamlakatning (joyning) gidrometeorologik xususiyatlariga moslashish davrini boshdan kechirishadi.

Turizm xavfsizligi turizm sohasining muvaffaqiyatli rivojlanishi uchun muhim omildir va bu orqali quyidagilarga erishish mumkin:

- turistlarni jalb qilish: turistlar o'zlarini xavfsiz his qiladigan yo'nalishlarni tanlaydilar;
- turistlarning qoniqishini oshirish: xavfsizlik sayohatdagi qulaylik va quvonchni oshiradi, bu esa ijobiy fikrlar va tavsiyalarni rag'batlantiradi;
- mamlakat imijini mustahkamlash: xavfsizlik mamlakatning turistik yo'nalish sifatida ijobiy imijini shakllantirishda muhim omildir;
- investitsiyalarni rag'batlantirish: xavfsizlik investorlarni jalb qiladi, ular turizm infratuzilmasini rivojlantirish uchun mablag' sarflashga tayyor;
- turistik resurslarni saqlash: xavfsizlik tabiiy va madaniy resurslarni saqlashga yordam beradi, bu esa turizmning barqaror rivojlanishi uchun muhim omildir.

Turizmning rivojlanishiga turli omillar ta'sir ko'rsatadi. Jumladan raqobat, axborot texnologiyalari, avia tashuvlar, turoperatorlik xizmatlari, mamlakatdagi siyosiy va ijtimoiy holat hamda umumiy xavfsizlik darajasining oshishi va hokazo. Biroq, shuni alohida ta'kidlash joizki, turistik tashkilotlar o'z faoliyati bilan bog'liq xavfsizlik masalalarini davlatning yordamisiz mustaqil ravishda hal eta olmaydilar [9].

Sayohatda turistlar xavfsizligiga ta'sir etuvchi asosiy omillar quyidagilarni o'z ichiga oladi:

turistlar bo'ladigan joyning geografik va tabiiy xususiyatlari (dengiz, tog', cho'l hududlari, iqlim, o'ziga xos hayvonlar va hasharotlar mavjudligi va h.k.);

vaqtinchalik bo'lish joyining madaniy va

ijtimoiy muhiti, mahalliy ovqatning o'ziga xosligi, til, madaniy, diniy va etnik an'analar va hokazo;

turizm turlarining o'ziga xosliklari (ekstremal turizm, sport-sog'lomlashtirish turizmi va boshqalar);

ko'rsatilayotgan xizmatlarning sifat va xavfsizlik darajasi;

turistlar (ekskursantlar) shaxsiy xavfsizlik qoidalariga rioya qilishlari, jumladan vaqtinchalik bo'lish mamlakatining (joyining) qonunlari, qoidalari va an'analari (madaniy, diniy va b.), sanitariya-epidemiologiya normalari va maxsus ko'rsatmalar, davlat organlari, Favqulodda vaziyatlar vazirligi maxsus xizmatlari, gidlar va yo'lboshchi-instruktorlar ko'rsatmalari hamda shaxsiy himoya vositalaridan foydalanishlari.

Shularni inobatga olgan holda, xavfsiz turizmni ta'minlash deganda, sayohat qilish jarayonida turistlar va mahalliy aholi uchun xavf-xatarsiz muhit yaratish va ushbu muhitni saqlash, jinoyatchilik darajasini pasaytirish, sanitar-gigiyenik normalarga rioya qilish, tibbiy yordamni tez va samarali ko'rsatish hamda tabiiy ofatlarga tayyorgarlik ko'rish maqsadida davlat siyosati darajasida amalga oshirilishi kerak bo'lgan chora-tadbirlar majmuasini tushunish lozim.

Turizm sohasidagi jinoyatchilik xavflilik darajasiga ko'ra turli toifalarga bo'linadi. Umumiy jinoyatlar, ya'ni turistlarga nisbatan amalga oshiriladigan o'g'irlik, firibgarlik va zo'ravonlik kabi jinoyatlar turizm sohasida keng tarqalgan [14]. Bu jinoyatlar turistlarning huquqlari va xavfsizligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Shuningdek, turizmning jadal rivojlanishi natijasida mamlakatdagi infratuzilmaga ham bosim tushadi, bu esa jinoyatchilikning yoshlar va ishsizlar o'rtasida kengayishiga olib kelishi mumkin.

Jinoyatchilikning turizm sohasida qanday tarzda sodir etilishi va uning sabablari kriminologiyaning asosiy tadqiqot mavzularidan biri hisoblanadi. Kriminologiya nazariyasiga ko'ra, har bir jinoyatning o'z sabablari bor, ularni tushunish va tahlil qilish jinoyatlarning oldini olishda muhim o'rin tutadi. Turistlarga nisbatan sodir etiladigan jinoyatlarning sabablari quyidagi omillar bilan bog'liq bo'lishi mumkin:

1. Mehnat migratsiyasi va ishsizlik. Bu omil turistlarga nisbatan o'g'irlik va qalloblik kabi jinoyatlarni ko'paytiradi. Jinoyatchilar o'ziga ish topolmagan yoki qonuniy yo'l bilan pul ishlay

olmagan taqdirda, jinoyat qilishga moyil bo'ladilar.

2. Qonunchilikdagi bo'shliqlar va huquqiy tizimning zaifligi. Turizm sohasidagi qonunlar zaif yoki amalga oshirilishi qiyin bo'lganda, jinoyatchilar bu imkoniyatdan foydalanib, jinoyatni amalga oshirish imkoniyatiga ega bo'ladi. Kriminologiya nazariyasiga ko'ra, qonunchilikdagi bo'shliqlar va tizimning zaifligi jinoyatlarning ko'payishiga olib keladi.

3. Ijtimoiy nazoratning yetishmasligi yoki kuchsizligi jinoyatchilikni ko'paytiradi. Bu holatda turistlarga nisbatan jinoyatlar sodir etilishi xavfi yuqori bo'ladi, chunki jamiyat va huquq-tartibot organlari tomonidan nazorat yo'q yoki zaif bo'ladi.

Kriminologiya nuqtayi nazaridan qarganda, jinoyatchilikka qarshi kurashishda jamoatchilikning ishtiroki juda muhimdir. Turistlar xavfsizligini ta'minlashda jamoatchilik va fuqarolarning hamkorligi turizm sohasida jinoyatlarni kamaytirishning samarali usulidir.

O'zbekistonda turizm rivojlanishi bilan birga, bu sohaga jamoatchilik ishtiroki va faoliyati ham kuchaytirilmoqda. Buning uchun turizm obyektlarida jamoatchilik nazoratini kuchaytirish, turli dasturlar orqali fuqarolarning turistlarga yordam berishga qaratilgan tashabbuslarini rag'batlantirish lozim.

Umuman olganda, turizm sohasida xavfsizlikni ta'minlash masalasi O'zbekistonning xalqaro imiji va iqtisodiy rivojlanishi uchun muhim ahamiyatga ega. Mamlakatda turizm sohasidagi jinoyatchilikka qarshi kurashish uchun samarali huquqiy mexanizmlar va profilaktik chora-tadbirlar ishlab chiqilishi zarur, shuningdek, xalqaro tajribani o'rganish va ulardan foydalanish muhimdir. Davlatning bu sohadagi siyosati va jamoatchilikning faol ishtiroki turistlar xavfsizligini ta'minlashning asosiy omillari bo'lib xizmat qiladi. Xavfsiz turizmni ta'minlash mamlakatning iqtisodiy salohiyatini oshirishga ham hissa qo'shadi.

Foydalanilgan manbalar

1. Большой толковый словарь русского языка. – СПб., 1998. – С. 67.
2. Дулов А.Н., Дюхова К.А., Юрчак Д.В. История путешествий и туризма: Монография. – Витебск: УО ВГУ им. П.М. Машерова, 2011. – С. 50.
3. Закон Кыргызской Республики от 25 марта 1999 года № 34 О туризме // <http://cbd.minjust.gov.kg/act/view/ru-ru/201>
4. Закон Республики Беларусь от 11.11.2021 г. № 129-3 «О туризме» – Pravo.by
5. Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son, 12.10.2021-y., 03/21/721/0952-son; 07.06.2022-y., 03/22/775/0477-son; 29.11.2023-y., 03/23/880/0905-son; 14.05.2024-y., 03/24/926/0344-son
6. Официальный сайт Всемирной туристской организации ООН. URL: <http://www.unwto.or>
7. O'zbek tilining izohli lug'ati // ziyouz.com.
8. Писаревский Е.Л. Административно-правовое обеспечение безопасности туризма в Российской Федерации: Дис. ... д-ра юрид. наук. – М., 2011. – 496 с.
9. Писаревский Е.Л. Актуальные вопросы совершенствования законодательства в области обеспечения личной безопасности туристов // Вестник СПбГУ, 2011. – Сер. 14. – Вып. 1. – С.31-42
10. Сеульская декларация «Мир и туризм». Официальный сайт Всемирной туристской организации ООН. URL: <http://www.unwto.or>
11. Статья 14. Обеспечение безопасности туризма / Консультант Плюс (consultant.ru)
12. Tursunova S.R. Xavfsiz turizmni ta'minlashning ma'muriy-huquqiy choralari takomillashtirish: Yurid. fan. fal. d-ri (PhD)... dis. – Toshkent, 2023. – 165 b.
13. O'zbekiston turizmni faol rivojlantirayotgan mamlakatlar reytingida birinchi o'rinni egalladi (batafsil.uz)
14. <https://daryo.uz/k/PGaLH73y>
15. Шаруева М.В. Правовое обеспечение безопасности туризма по российскому законодательству: Автореф. дис. ... канд. юрид. наук. – М., 2010. – С. 17-18.

